

## DIALOGIK DISKURSDA SHAXS RUHIYATINING IFODALANISHI

**Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,**

Namangan davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasи dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
e-mail: nozimakozakova2@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*Diskurs tushunchasi bugungi zamonaviy tilshunoslikda markaziy tushunchalardan sanaladi. Diskurs ijtimoiy, madaniy, etnik, psixologik, emotsiyal-ekspressiv qimmatga ega bo'lgan va lisoniy hamda nolisoniy birliklar uyg'unligi vositasida tarkib topadigan, so'zlovchi va tinglovchi munosabati, nutqiy vaziyat, so'zlovchining kommunikativ strategiyasini aks ettiruvchi muloqot jarayoni, kommunikativ-pragmatik-lingvistik hodisa sanaladi. Mazkur xususiyatlar badiiy matn nuqtayi nazaridan qaraganda dialogik diskurslarda to'liq reallashadi.*

*Mazkur maqolada dialogik diskursning pragmalingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dialogik diskursning shaxs ruhiyatini ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada antroposentrik tilshunoslik metodologiyasiga asoslaniladi. Diskurs va unda shaxs ruhiyatining ifodalanishi masalasida pragmatik omillarga alohida ahamiyat beriladi.*

**Kalit so'zlar:** diskurs, dialogik diskurs, matn, nutq birligi, emotsiyal-baholovchi leksika, nutqiy faoliyat, muloqot.

### ABSTRACT

*The concept of discourse is one of the central concepts in today's modern linguistics. Discourse is a communication process that has social, cultural, ethnic, psychological, emotional-expressive value and is composed by the combination of linguistic and non-linguistic units, the relationship between the speaker and the listener, the speech situation, the communicative strategy of the speaker, communicative - is considered a pragmatic-linguistic phenomenon. These features are fully realized in dialogic discourses from the point of view of literary text.*

*This article analyzes the pragmalinguistic features of dialogic discourse. The importance of dialogic discourse in expressing the individual's psyche is revealed. The article is based on the methodology of anthropocentric linguistics. Pragmatic factors are given special importance in the issue of discourse and the expression of the individual's psyche in it.*

**Key words:** discourse, dialogical discourse, text, speech unit, emotional-evaluative lexicon, speech activity, communication.

## KIRISH

Inson hayotining barcha jahbalarida, kundalik turmushda, ish faoliyatida, jamiyatning barcha tarmoq va sohalarida muloqot eng muhim kategoriya sanaladi. Muloqot jarayoni o’zining lisoniy va nolisoniy omillar, vositalar uyg’unligida to’liq bo’la olishi bilan ham xarakterlidir. Til, albatta, avvalo muloqot vositasi sanaladi. Shu bilan birga, tilning inson ruhiyatini akks ettirishi, muloqot jarayonida so’zlovchi va tinglovchi orasida nafaqat fikrlar almashinushi, balki his-tuyg’ular almashinushi ham yuz berishi tilshunoslikda qator tadqiqotlarda e’tirof etiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Diskurs termini bugungi tilshunoslikda faol qo’llanayotgan tushunchalardan sanaladi. Prof. A.Nurmonov diskursni insonning subyektiv ruhiyatini aks ettiruvchi hodisa sifatida baholab, pragmatikaning o’rganish doirasiga kiritsa [6], prof. SH.Safarov nutq sathining maksimal birligi, bajarayotgan kommunikativ vazifasi jihatdan tizimlashgan va muloqot vaziyatiga moslashgan nutqiy qurilma, inson ongli faoliyatining ma’lum bir turi, turkumi, matnni esa uning bir ko’rinishi sifatida ta’riflaydi. Matn va diskurs hodisalarini qiyoslab, ikki hodisani “giperonim” – “giponim” munosabatida o’rganishni taklif qiladi. Nutqni jarayon sifatida o’rganish faqat muloqot – so’zlovchi va tinglovchi orasidagi o’zaro diskurs (fikr almashtirish), savolga javob berish hollaridagina tadqiq etilishi mumkin, deb hisoblaydi.[8,9] Aslida matn ham, diskurs ham nutq birligi sanaladi. Jahon tilshunosligida diskurs borasida I.V.Karasik [5], M.O. Jeltuxina [3], V.G. Borotko [1], O.V. Guseva [2] kabilalar, o’zbek tilshunosligida A.Nurmonov [6], Sh.Safarov [8,9], L.Raupova [7] kabilalar tomonidan fikrlar bayon qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqlolada antroposentrik tilshunoslik metodologiyasiga asoslaniladi. Diskurs va unda shaxs ruhiyatining ifodalanishi masalasida pragmatic omillarga alohida ahamiyat beriladi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Diskursni “jonli”, lisoniy va nolisoniy vositalar uyg’unlashgan matn sifatida izohlashimiz mumkin. Dialogik diskursning sotsiopragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan professor L.Raupova ham diskursga “nolisoniy hodisalar qurshovidagi matn” sifatida qaraydi [7]. Demak, diskurs ijtimoiy, madaniy, etnik, psixologik, emotsiional-ekspressiv qimmatga ega bo’lgan va lisoniy hamda nolisoniy birliklar uyg’unligi vositasida tarkib topadigan, so’zlovchi va tinglovchi munosabati, nutqiy vaziyat, so’zlovchining kommunikativ strategiyasini aks ettiruvchi muloqot jarayoni,

kommunikativ-pragmatik-lingvistik hodisadir. Mazkur xususiyatlar badiiy matn nuqtai nazaridan qaraganda dialogik diskurslarda to'liq reallashadi. Chunki dialog shunchaki suhbat, qahramonlarning fikr almashinuv jarayoni emas, badiiy asar syujeti va kompozitsiyasida muhim tarkibiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa, qahramonlar pozitsiyasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi hamda ularga nisbatan kitobxonda ijobiy yoki salbiy baholashni yuzaga keltiruvchi matn qismidir. Dialog o'zining mustaqil qurilish tizimiga va qat'iy tartib-qoidalariga ega bo'ladi. U syujetni rivojlantirish, xarakterlarni takomillashtirish, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirish, ularning ichki dunyosini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Dialogik diskurs badiiy ijodkor uchun ijod texnikasining eng qiyin bo'laklaridan biri sifatida qaralsa, tilshunos uchun uning sintaktik o'ziga xosliklari, pragmatik va diskursiv mazmuni hamda tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Mohir so'z san'atkorlari bayonchilikka yo'l qo'ymay, aynan dialogik diskursda qahramonlarni hayotiy, jonli odam sifatida tasvirlab, ularning insoniy xususiyatlarini qahramonlarning o'z nutqi orqali olib beradilar. Pragmatika nuqtai nazaridan kommunikatsiya jarayonining ikkinchi qatnashchisi, ushbu nutq namunasi mo'ljallangan tinglovchi yoki o'quvchini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Ma'lum bir nutq namunasi kontekstini tushunish, uning umumiyligi hikoyadagi kommunikativ rolini anglash uchun so'zlayotgan va eshitayotgan, yozayotgan va o'qiyotgan shaxslar nafaqat umumiyligi bilimiga, balki tarixiy, madaniy, ijtimoiy mazmundagi ma'lumotlarga ega bo'lishi talab etiladi. O'quvchining saviyasi badiiy matnni qabul qilishda katta ahamiyatga ega. Badiiy matnni anglashda esa bu hal qiluvchi omildir. Qahramonlar ruhiyati, o'zaro munosabati, tasvirlanayotgan voqealarga munosabati shu jarayonda ochiladi, turli nutqiy vaziyatlar namoyon bo'ladi. Qahramonlarning dialogik nutqini emotsional-baholovchi leksika (murojaat, zoometaforalar, kuchaytirma sifatlar, iboralar; prosodik elementlar (punktuatsiya matn mazmunini o'quvchiga tez va to'g'ri anglashga yordam beradi); nutqning uslubiy o'ziga xosligi, tavsifi (qahramon nutqining o'ziga xosliklari); informativlik; ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri (jamiyatdagi tabaqalanish, ijtimoiy kelib chiqish, jins va yosh, muloqot tipi va boshqalar); dialogning psixologik asosi kabi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.[4]

Masalan: Hoji shartta o'zini yerga otdi. Emaklab u tomon kela boshladи.

- Meni kechiring. Kechiring. Gunohlarimni oqlayman. O'sha o'ttiz ming so'mni to'layman. Ellik ming qilib to'layman.

- Pulni-ku to'laysan. Senga pul cho't emas. Qurbonlar umrini nima bilan to'laysan? Azob-uqubatda yo'qolgan navqiron umrimni nima bilan to'laysan? Sarson-sargardon bo'lib, o'lib ketgan xotinimning umrini nima bilan to'laysan? Yo'q bo'lib

to’zib, patarat topib ketgan oilamga qancha haq to’laysan? Kiyimlarni yoq. Bo’lmasa tepkini bosaman. (Said Ahmad “Jimjitlik”)

Dialogik diskurs nutq ishtirokchilarining munosabatlari, ruhiy quvonchlari, iztiroblari, xarakterli jihatlarini ochishda alohida ahamiyatga ega ekanligi yuqoridagi misoldan ko’rinib turibdi. Badiiy asarlardagi eng kulminatsion, qizg’in nuqtalar aynan dialoglarda ham o’z ifodasini topishi mumkin. Yuqoridagi dialogic diskursda ritorik so’roq gaplarning takror qo’llanishi muloqotga keskinlik, qahramon ruhiyatidagi to’xtatib bo’lmas alam, iztirobni yaqqol ochib berishga xizmat qilgan. Qahramon xarakteridagi keskinlik, alamzadalik, shu nutqiy vaziyatda hokim pozitsiyada ekani qat’iy buyruq gaplar orqali o’z ifodasini topgan.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dialogik diskursda muloqot ishtirokchilari nutqida informativlikka qo’shimcha tarzda ijtimoiy munosabatlar, ruhiy ta’sirlanishlar doirasida o’zaro fikr va tuyg’ular almashinushi yuz beradi. Bu jarayonda tilning barcha sath birliklari birday ahamiyathi bo’lib, so’zlovchi samarali muloqot uchun til birliklarini eng ta’sirli shaklda qo’llashga intiladi. Badiiy matnda esa yozuvchi dialogik diskurs orqali asar hayotiyligini, qahramonlarning hayotiyligini ta’minlash uchun foydalanadi. Asar qahramonlarining eng xarakterli jihatlari, dunyoqarashi va mafkurasi, pozitsiyasi dialog orqali ochib beriladi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Борбелько В.Г. Общая теория дискурса (принципы формирования и смыслопорождения): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Краснодар, 1998. – 48 с.
2. Гусева О.В. Лингвопрагматический анализ дискурсивно-идиоматических параметров открытого письма в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Иркутск, 2000. – 17 с.
3. Желтухина М.Р. Комическое в политическом дискурсе конца XX века. Русские и немецкие политики: Монография / Ин-т языковед. РАН. М.– Волгоград: Изд-во ВФ МУПК, 2000. – 264 с.
4. Ибрагимова Э.Ўзбек тили лексикасининг аксиологик тадқиқи. – Фаргона, 2018. – 115 б.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва, 2002. – 331 с.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент: Академнашр, 2012. 3-жилд. – Б.197.

7. Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг соционпрагматик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 13.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 221-253.
9. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоционпрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – Б. 15.
10. Соболева Е. Проблемы прагматики англоязычного художественного текста // Известия ПГПУ. 2008.
11. Қамбаров Ф. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): филол.фанлари номз... дис. – Тошкент, 2008. – 125 б.
12. Nozima Kozakova. Main Concepts in Pragma Linguistic Analysis of Literary Text (In the Examples of Gafur Gulyam's Works) International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN: 2319-7064 ResearchGate Impact Factor (2018): 0.28 SJIF (2018): 426 <https://www.ijsr.net/archive/v8i5/ART20197904.pdf>